

2021-yil 13-mart

Hashar - elga yarashar



“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati mamlakatimiz miqyosida o'tkazilayotgan “Obod va ko'rkam mahallam” obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hasharida faol ishtirok etmoqda. Jamiyat tarkibidagi barcha korxonatashkilot xodimlar va tizimda faoliyat yuritayotgan yoshlar nafaqat korxonahududi balki korxonaga tutash hududlar obodligiga o'z xissalarini qo'shishmoqda.



“Navro'z” umumxalq bayrami oldidan o'tkazilayotgan “Obod va ko'rkam mahallam” obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hashari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 martdagi qarori asosida o'tkazilmoqda. Qarorda aytilishicha, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, bir qator vazirlik va idoralar, jamoat tuzilmalarining 13 mart kuni “Navro'z” umumxalq bayramiga bag'ishlab “Obod va ko'rkam mahallam” obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hasharini o'tkazish bo'yicha taklifi ma'qullandi.



“Obod va ko'rkam mahallam” obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hashari “O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonatashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar ham faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, “O'zkimyosanoat” AJ tizimida mart oyi “Ko'kalamzorlashtirish oyligi”

deb e'lon qilinishi munosabati bilan jamiyat tizimidagi korxonalar va tashkilotlar hamda ularga tutash hududlarda "Atrof-muhit himoyasiga barchamiz mas'ulmiz!" shiori ostida ko'klamzorlashtirish loyihasi doirasida daraxt va manzarali ko'chatlar ekish tadbirlari ham amalga oshirilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/hashar-navruz>